- igna mexanizmi, moki chalmashtirgich, materialni surish, ip tortgich, tepki, taqsimlagich kabi mexanizmlardan tuzilgan.

Mexanizatsiyalashtirilgan mexanizm va qurilmalarga quyidagilar kiradi: materialni yo`naltirgichlar, o`lchash va rolikli surish mexanizmlari, igna ostiga tugmalarni uzatuvchi mexanizmlar, bo`rtirgichlè moslamalar, gazlama chekkasini qirquvchi mexanizmlar, puxtalash mexanizmlari, ignani sovitish qurilmalari va hokazolar kiradi.

Bu qurilma va mexanizmlar tikuv mashinasining vazifalari va texnologik jarayonni bajarish funksiyalariga qarab har xil konstruktsiyalarga hamda ishlash printsipiga egadir.

Avtomatlashtirilgan mexanizm va qurilmalarga quyidagilar kiradi:

- avtomatik to`xtatish qurilmasi;
- ignani kerakli holatida avtomatik to`xtatish;
- vertikal pichoq bilan ip va to`rsimon materiallarni qirqish;
- ostki ipni qirqish;
- tepkini texnologik jarayondan keyin avtomatik ko`tarish;
- joylash jarayoni buzilganda va ip uzilganda ogohlantirish;
- gazlama o`ramini avtomatik bo`shatish;
- mahsulot miqdori va o`lchamlarini hisoblagich va hokazolar;
- mahsulot sifatini tekshirish moslama va shablon, chizg'ich asboblari;

Ip mexanizmi - ip o`tkazilgan igna orqali tikilayotgan gazlama qatlamlarini sanchib o`tib, ustki ipni ostki moki ipi bilan bog`lash va yetkazib berib turish texnik funksiyasini bajarish uchun xizmat qiladi. Igna mexanizmlari quyidagi turlarga bo`linadi.

### **3.2. "Zinger" firmasining tikuv mashinasining igna mexanizmining ishlash printsiipi**

Tikuvchilik ishlab chiqarishlarida markazlashgan va markazlashmagan krivoship-shatunli igna mexanizmlari bilan jihozlangan tikuv mashinalari keng qo'llanilib, ish rejimi jarayonlari yuqori tezliklarda bajariladi va harakatlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- ilgari lanma-qaytarilma harakatlanuvchi ignali;
- gazlama surilishi yo`nalishi bo`yicha ko`ndalang yoki bo`ylama;
- gorizonta l tebranma harakatlanuvchi ignali;
- yoysimon traektoriya bo`yicha harakatlanuvchi ignali;
- murakkab trayektoriya bo`yicha harakatlanuvchi ignali mexanizmlar.

"Zinger" firmasining tikuv mashinasining igna mexanizmlari 1022- M rusumli tikuv mashinalarga juda o'xshash bo'lib, texnologik jarayonlar quyidagicha boradi: "Zinger" firmasining tikuv mashinasida krivoship-shatunli igna mexanizmi qo'llaniladi. Asosiy val 23 ga 3 dona podshipnik 24 o'rnatilgan bo'lib, unda val aylanma harakat qiladi (1-rasm). Valni o'ng uchiga maxovik g'ildiragi 26 vintlar 25 yordamida mahkamlangan. Maxovik g'ildirak 26 ni o'ng yon tomoniga, uni qo'lda aylantirish uchun 3 ta vint bilan qopqoq 27 qotirilgan. Maxovik g'ildirak 26 kanavkasiga ponasimon tasma 28 kiritilib, u elektrodvigatel' shkividan aylanma harakatni bosh valga etkazib beradi. Bosh val 23 ni chap uchi qismiga, vint 30, yordamida krivoship 29 qotirilgan. Krivoship (kulachok) teshigiga barmoq 14 kiritilgan bo'lib, ikkita vint 21 bilan mahkamlangan.


Barmoq 14 ni tashqi elkasiga ignali podshipnik 13 o'rnatilgan va shatun 7 ni ustki kallagi kiydiriladi. Shatun 7 ni yuqori kallagini o'q bo`ylab siljishi shayba 10 ni rez'kali vint 8 yordamida bartaraf qilingan. Shatun 7 ni pastki kallagi vint 5 orqali igna yuritgich 3 yo`naltiruvchiga qotirilgan povodok 6 ni barmoqiga kiritilgan. Povodok 6 barmoqining o'ng tomoniga, mashina korpusiga vintlar yordamida mahkamlangan yo`naltirgich 33 ni kanavkasiga joylashgan polzun 32 ga kiydirilgan. Igna yuritgich 3 mashina korpusiga vint 11 yordamida qotirilgan, ikkita vtulka tayanchlar ichida chiziqli harakat qiladi.

Igna yuritgich 3 ni pastki qismida simdan maxsus yasalgan ip-  
yo`naltirgich 2 mahkamlangan. Bosh val 23 krivoship 29 va uni barmoqi 14  
aylanganda, aylanma harakat shatun 7 orqali igna yuritgich 3 ga qotirilgan igna 1  
ni ilgariylanma-qaytma harakatiga aylanadi. Igna 1 ni o`rnatishdan oldin maxovik  
g`ildirak 26 ni aylantirib igna yuritgich 3 yuqori holatiga keltiriladi. Vint 15  
bo`shatiladi, igna 1 ni ignatutgichni oxiriga qadar kiritiladi, qisqa ariqchasi moki  
uchi tomonga qarab 35 vint bilan mahkamlanadi, igna singanda yoki  
shikastlanganda shu uslubda almashtiriladi. Ignani moki uchiga nisbatan balandligi  
vint 5 ni vinti bo`shatilgandan keyin igna yuritgich 3 ni vertikal o`q bo`yicha  
surilib rostlanadi. Buning uchun igna 1ni naycha tutgich pazi 16 ni tagidan igna  
ko`zini yarmi ko`rinib turadigan qilib, eng pastki holatiga tushirib qo`yiladi.

Igna 1 harakatni quyidagi ketma-ketlikda oladi:

Elektrodvigatel D → shkiv → remen → shkiv → bosh val → krivoship  $r$  →  
shatun L → polzun P → ip yuritgich → igna → material → moki.

Texnologik jarayon bosqichi: g`altakdagi ip, ushlagich 1 o`rnatiladi, ip totgich  
orqali igna teshigidan o`tadi, materiallar harakatlanishi bilan igna va moki  
siklogramma bo`yicha harakatni boshlaydi. Ip o`tkazilgan igna tikilayotgan  
materiallar qatlamidan o`tib, moki ichidagi ip bilan chalishib uni yuzaga olib  
chiqadi, birta bahya hosil qiladi. Bu tsikllar to`xtovsiz davom etadi va  
materiallarda bahya qatorlari hosil bo`lib, ikki yoki undan ortiq qatlamli  
materiallarni ip yordamida biriktiradi, ularni o`zaro zich bo`lishi bahya qatorni  
qadamiga, material turiga, zichligiga, birikadigan materiallar soniga bog`liq bo`ladi  
va mashina unumdorligini aniqlaydi.




**3.1- rasm. "Zinger" firmasining tikuv mashinasida igna va ip tortish mexanizmlari orqali texnologik jarayonlarni ish bajarilishi**

Kinematik juftlarda, mexanizmlardagi titrashlar, shovqinlarni kamaytirish maqsadida takomillashgan zamonaviy tikuv mashinalari yaratildi. Takomillashgan tikuv mashinasi to`shak usti qoplamalarni, ko`ylaklar, kattalar ustki kiyimlarini tikishga mo`ljallangan (2- rasm).

Bosh val 11 ikkita sirpanish tayanch vtulkasi 12 va 13 ga ega, valni o`ng tomoni oxirida maxovik 14 mahkamlangan, elektrodvigatel' ponasimon tasmali releni shkivlar orqali bosh valni harakatga keltiradi. Chap tomoni uchida krivoship 1 o`rnatilgan va muvozanatlagich qarama-qarshilikda qo`yilgan. Valni maxovik birikkan qismida, shatunni yuqori kallagi barmoqga kiritilgan. Igna yuritgich 7 ilgarilanma-qaytarilma harakat qiladi.

Igna yo`naltirgich harakatlanishi davomida ortiqcha inertiya kuchlarini yumshoq elastik element prujina yutadi va to`plab boradi. Unda har xil zarbalar, tezlik va tezlanishlardagi xarakterli  $V_{\max} = a_0$ ;  $a_{\max} \tau = V_0$  holatlarni kamaytirish imkoniyatlari bo`lishi mumkin.




3.2-rasm. "Zinger" firmasining tikuv mashinasini konstruktiv sxemasi.

### **Igna mexanizmi turlari, strukturaviy va kinematik tuzilishlari.**

Tikilayotgan detallarni teshish yo`li bilan va ip orqali biriktiruvchi igna mexanizmini turlari har xil bo`lib, ular faqat oxirgi zveno igna yuritgichni harakat turiga va strukturasi bilan farq qiladi. Ko`pchiliê mashinalarda igna yuritgichlar ilgarilanma-qaytarilma harakat sodir etsa, ayrimlarda tebranma harakat qiladi. Strukturaviy tuzilishlariga qarab, tekislikdagi va fazoviy mexanizmlarga bo`linadi.

Krivoship-pozunli mexanizmlarni strukturasi tanlashda dezaksialni, shatunni igna harakati yoʻnalishida ishlashini va tayanchlar ratsional sonini oʻrnatish talab qilinadi.



3.3-rasm. Igna mexanizmini turlari va strukturalari. 1-krivoship; 2- shatun; 3- polzun; 4- povodok; 5- igna yuritgich; 7-tayanch vtulkalar.

a - tekislikdagi krivoship-polzunli igna mexanizmi;

б, в - krivoshipli, olti zvenoli tekislikdagi va fazoviy igna mexanizmlar; г, д - krivoship-koromisli tekislikdagi va fazoviy igna mexanizmlari;

### 3.3. "Zinger" firmasining tikuv mashinasini igna mexanizmini strukturaviy tahlili. (Chebishev formulasi)

**Berilgan:**


**Mexanizm zvenolarining uzunliklari:**

$l_{O_1A}$  - krivoship uzunligi, mm.

$l_{AB}$  - shatun uzunligi, mm.

$S_u$  - igna yo`li, mm.

$\omega_1$  – krivoship burchak tezligi, r/s.




3.4-rasm. Igna mexanizmining kinematik sxemasi.

Igna mexanizmining strukturaviy tahlili etaklovchi zvenodan boshlanadi.

Igna mexanizmi o`z tarkibiga quyidagi zvenolarni olgan:

1-krivopish, 2-shatun, 3-igna yo`naltirgich, 4-qo`zg`almas zveno (tayanch).

Krivoship o'z o'qi atrofida 3600 ga bir tekisda aylanma harakat qiladi. Shatun zvenosi A nuqta bo'yicha aylanma, V nuqta bo'yicha ilgarilanma-qaytma harakat qiladi. Natijada shu zvenoda murakkab harakat sodir bo'ladi. Igna yo'naltirgich o'z navbatida ilgarilanma-qaytma harakat qiladi. Tayanchning qo'zg'almas xarakati esa 0 ga teng bo'ladi.



3.5-rasm. O1 tayanch bilan krivoshipning bog'lanish sxemasi.

O1 tayanch bilan krivoshipning bog'lanishi Assur bo'yicha I-sinf 1-tartibli mexanizm deb qabul qilinadi.

$$N=1, P_5=1 (1-4)$$

n-qo'zg'aluvchan zveno soni.

Akademik Chebishev P.A. formulasi bo'yicha qo'zg'aluvchanlik darajasini topamiz.


$$W=3n - 2P_5 - 1P_4$$

$P_4$  – IV- sinf kinematik juftlar soni bo'lib, richagli mexanizmlarda mavjud bo'lmaydi, ya'ni "0" ga teng bo'ladi.

U vaqtda  $W=3n - 2P_5 - 1P_4 = 3n - 2P_5 - 1*0=1$

Demak, krivoship - igna mexanizmini harakatini ta`minlovchi zveno bo`lib xizmat qiladi.

Assur guruhi.



3.6-rasm. Shatun va igna yo`naltirgich zvenolarining bog`lanish sxemasi.

Chizmada qo`zluvchan zvenolar soni  $n=2$  (2,3)

V-sinf kinematik juftlar soni  $P_5=3$  (1-2, 2-3, 3-4)

$$P_4=0 \quad W=3n - 2P_5 - 1P_4 = 3*3 - 2*3 - 1*0=0$$

Demak, bu yerda Assur guruhi harakatda bo`lmagan guruh hisoblanadi, ya`ni  $W=0$ .

Igna mexanizmining qo`zg`aluvchanlik darajasini aniqlaymiz

$$W=3n - 2P_5 - 1P_4 = 3*3 - 2*4 - 1*0=1$$

Bu yerda:

$$N=3 \text{ (1, 2, 3)} \quad P_5=4 \text{ (1-4, 1-2, 2-3, 3-4)} \quad P_4=0$$

Demak, formuladan ko`rinadiki, igna mexanizmini krivoship zvenosi harakatga keltiradi.

Mexanizmning strukturaviy tuzilish formulasi quyidagicha bo`ladi:

$$W_{\text{механизм}}=W_{\text{I-сифф 1-тартибли механизм}} + W_{\text{I-сифф 2-тартибли Ассур}} = 1+0=1$$

## IV. TASHKILIY-IQTISODIY QISM

### 4.1. Rejalashtirish kalkulyatsiyasi

Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ma`lum miqdorda xom ashyo va materiallar, mehnat va pul mablag'lari sarflanadi. Mahsulot tannarxi - har bir ishlab chiqarish birlashmasining, korxonasining ishlab chiqarish faoliyatida eng muhim iqtisodiy ko`rsatkichdir.

Mahsulotning to`la tannarxi korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlari va ulardan tashqari mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari yig`indisidan iborat. Mahsulot tannarxining pasayishiga har xil texnik-iqtisodiy omillar ta`sir ko`rsatadi.

Ma`lum buyumning tannarxini hisoblash uchun belgilangan jadval shaklida rejalashtirish kalkulyatsiyasi tuziladi.

Rejalashtirish kalkulyatsiyasi quyidagi moddalardan iborat:

1-modda: Asosiy materiallar xarajati.

Asosiy materiallarning hamma turlari bo`yicha ularning sarf normalari ulgurji baholari ko`paytmasiga teng.

2-modda: Asosiy va qo`shimcha ish haqi.

Mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashayotgan ishchilarning asosiy va o`shimcha ish haqlariga teng. Bunda asosiy ish haqi tikuv sexlari uchun ishlab chiqarish narxiga asosan olinadi. qo`shimcha ish haqi asosiy maoshdan foiz hisobida olinadi.

3-modda: Maxsulotning sex tannarxi

Ushbu moddaga quyidagilar kiradi: sotsial sug`urtaga ajratmalar, jihozlarni holatini va tsex xarajatlari.

Belgilangan davlat miqdorida ijtimoiy sug`urta fondiga ishlab chiqarishda band bo`lgan ishchilarning asosiy va qo`shimcha ish haqidan ajratma aniqlanadi.

4-modda: Maxsulotning korxonada tannarxi

Ushbu moddaga quyidagilar kiradi: umumkorxonada xarajatlari, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

5-modda: Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar

Mahsulotning to'la tannarxi mahsulotning korxonada tannarxi va ishlab chiqarishdan tashqaridagi xarajatlar yig'indisiga teng.

4.1-jadval

**Rejalashtirish kalkulyatsiyasi**

<b>№</b>	<b>Xarajat moddalarining nomlanishi</b>	<b>Sarf normasi</b>	<b>Ulgurji narxi, so'm</b>	<b>Xarajatlar miqdori, so'm</b>
1	2	3	4	5
1.	Asosiy materiallar, shu jumladan:			
	- Avra, m	2,5	5000	12500
	- Tugma, dona	5	200	1000
	- Ip, dona	1	1000	1000
	Jami materiallar xarajati:			14 500
2.	Asosiy va qo'shimcha ish haqi:			
	- asosiy ish haqi			4070,99
	- qo'shimcha			3161,25
	Jami ish haqqi:			7232,24
3.	Sotsial sug'urtaga ajratmalar(40%).			2892,9
	Jihozlarni holatini va ishlatishini ta'minlash(30%).			2169,68
	Sex xarajatlari(20%).			1446,45
	Jami mahsulotning sex tannarxi			6509,03
4.	Umumkorxonada xarajatlari(40%).			2892,9
	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (10%).			723,22
	Jami mahsulotning korxonada tannarxi:			3616,1
6	Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar(10%).			723,22
	Buyumning to'la tannarxi			32580,59

## 4.2. Kapital xarajatlar

Kapital xarajatlar asosan buyumni ishlab chiqarish uchun yoki tsexni tashkil etishga sotib olingan zamonaviy talablarga javob beradigan jihozlar, asbob-uskunalar va ularga sarflangan mablag' kiradi.

Kapital xarajatlarni hisoblashdan oldin oqimdagi har bir jihoz yoki asbob-uskunalarining narxi va oqimda (sexda) uning sonini aniqlash lozim.

### 4.2-jadval

#### Kapital xarajatlarni hisobi

<i>N<sub>o</sub></i>	Jihozlar nomi va turi	Jihozlar soni, dona	Birta jihozning narxi, so`m	Jihozlarning umumiy narxi,so`m
1	2	3	4	5
1	Moki baxyaqatorli universal "Zinger" tikuv mashinasi	7	500000	<b>3.500000</b>
2	508-M zanjirsimon baxyaqatorli yo`rmash mashinasi	5	330000	<b>1.650000</b>
3	Izma yo`rmash mashinasi Yarimавтомат 73401-P3 kl. 156 «Minerva»	3	330000	<b>990000</b>
4	Tugma qadash yarimавтомати 1595 klass	3	420000	<b>1.260000</b>
5	Dazmol ANV-16-90	6	80000	<b>480000</b>
	<b>Jami:</b>	26		<b>78.800000</b>

## Buyum tannarxining o'zgarishi

Buyum tannarxining o'zgarishini quyidagi jadval orqali hisoblash mumkin:

4.3-jadval

### Buyum tannarxining o'zgarishining hisobi

№	Xarajat moddalari	O'lchov birligi	Xarajatlar,so`m		Jami
			<i>X<sub>amal</sub></i>	<i>X<sub>BMI</sub></i>	
1	2	3	4	5	6
1	<b><u>1-modda:</u></b> Asosiy materialar xarajatlari	so'm	15000	14 500	500
2	<b><u>2-modda:</u></b> Asosiy va qo`shimcha ish haqi: asosiy qo`shimcha	so'm	4813,42 3610,07	4070,99 3161,25	742,43 448,82
	<b><i>Jami ish haqi xarajatlari:</i></b>		8423,49	7232,24	119125
3	<b><u>3-modda:</u></b> Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar Jihozlarni ta`mirlashga va ishlatishga xarajatlar Sex xarajatlari	so'm so'm	3369,39 2527,04 1684,98	2892,9 2169,68 1446,45	476,49 357,36 238,53
	<b>Jami mahsulotning sex tannarxi</b>	so'm	7581,13	6509,03	1072,11
4	<b><u>4-modda:</u></b> Umumsex xarajatlari Boshqa xarajatlar	so'm	3369,39 842,34	2892,9 723,22	476,49 119,12
	<b>Jami korxonona tannarxi:</b>	so'm	4211,73	3616,1	595,63
5	<b><u>5-modda:</u></b> Ishlab chqarishdan tashqari xarajatlar	so'm	842,34	723,22	119,12
	<b>Buyumning to`la tannarxi</b>	so'm	36058,69	32580,59	2978,1

### 4.3. Iqtisodiy samaradorligini hisoblash

Loyihaning iqtisodiy samaradorligining hisobi quyidagi bosqichlardan iborat:

- buyumni iqtisodiy samaradorligini hisoblash;
- yillik samaradorlikni hisoblash;
- xarajatlarning qoplash muddatini hisoblash.

#### 1. Buyumning iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ИС_{\text{б\уюм}} = \rho_{\text{амал}} - \rho_{\text{БИ}} = 481,34 - 407,09 = 74,25 \text{ so`m}$$

Bu erda:

$ИС_{\text{б\уюм}}$  - buyumning iqtisodiy samaradorligi;

$\rho_{\text{амал}}$  - amaldagi ishlov berish narxi;

$\rho_{\text{БИ}}$  - bitiruv ishida buyumning ishlov berish narxi.

#### 2. Yillik iqtisodiy samara quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ИС_{\text{йил}} = 240 \cdot n_{\text{см}} \cdot K_{\text{ок}} \cdot ИС_{\text{б\уюм}} = 240 \times 1 \times 690 \times 74,25 = 12.295800 \text{ so`m}$$

Bu erda:

**240** – bir yilda ish kuni;

$n_{\text{см}}$  – smenalar soni ( $n_{\text{см}} = 1 \div 3 \text{ см}$ )

$K_{\text{ок}}$  – oqimning quvvati, dona

$ИС_{\text{б\уюм}}$  – buyumning iqtisodiy samaradorligi, ming so`m.

#### 3. Kapital xarajatlarni qoplash muddati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{\text{м\у\д}} = \frac{K_{\text{БИ}} - K_{\text{амал}}}{ИС_{\text{йил}}} = \frac{78.800000 - 78.300000}{74,25} = 0,7 \text{ yil}$$

Bu erda:

$K_{\text{БИ}}$  – bitiruv ishida jihozlarga kapital xarajatlar;

$K_{\text{амал}}$  – amaldagi jihozlarga kapital xarajatlar;

$ИС_{\text{йил}}$  – iqtisodiy samaradorlik.

#### 4.4. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar

4.4-jadval

#### Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar

№	Ko'rsatkichning nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar		Og'ish	
			$K_{амал}$	$K_{БИ}$	absolyu $t \pm$	Nisbiy, %
1	2	3	4	5	6	7
1.	Oqim quvvati	dona	650	690	40	
2.	Ishchilar soni	ishchi	75	75	-	
3.	Mehnat unumdorligi	dona	74,01	74,25	0,24	
4.	Vaqt sarfi	sek	3200	3184	-16	
5.	Ishlov berish narxi	so'm	481,34	407.88	73,46	
6.	O'rtacha tarif razryadi	-	3	3	-	
7.	O'rtacha tarif koeffitsienti	-	4,1	4,28	0,18	
8.	Buyumning to'la tannarxi	so'm	36058,69	32580,59	2978,1	
9.	Kapital xarajatlar	so'm	75. 950000	78.800000	-285000	
10.	Yillik iqtisodiy samara	so'm	-	12.295800		
11.	Qoplash muddati	yil	-	0,7		

## **5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

### **Yo‘l – yo‘riqlar o‘tkazish va ishchilarni xavfsiz ishlash usullariga o‘rgatish**

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va sanoat korxonalarida kasb kasalliklari va jarohatlanishga olib keladigan omilarni butunlay yo‘qotish sanoat korxonalarini rahbarlari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun ham har bir sanoat korxonasi o‘zi uchun mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan instruktajlar sistemasi tashkil qilingan va bu sistemalar ishchilarning xavfsizligini ta‘minlovchi ish usullarini o‘rgatish bilan ishchining mehnat xavfsizligini saqlash chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi.

Yo‘l - yo‘riqlarlarni asosan to‘rt gruxga bo‘lib qarash mumkin: 1) kirish yo‘l - yo‘riqlari; 2) ish joyidagi yo‘l - yo‘riqlari; 3) vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan yo‘l – yo‘riqlar va 4) rejadan tashqari yo‘l - yo‘riqlar.

Sanoat korxonalarining hammasida ish kategoriyasi va xavfli darajasi qanday bo‘lishiga qaramay barcha ishchi va xizmatchilar ish davri, mutaxassisligi va malakasidan qat’iy nazar yo‘l - yo‘riqlardan o‘tishlari shart.

Kirish yo‘l - yo‘riqlari. Ishga yangi kirayotganlar uchun o‘tkaziladi. Bu instruktajning asosiy maqsadi ishga kirayotgan kishini mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi to‘g‘risida ma‘lumot berish, uni sanoat korxonasi maydonlari va sexlaridagi tartib-qoidalardan xabardor qilishdir. Kirish instruktaji yaxshi jihozlangan va ko‘rgazmali qurollar o‘rnatilgan mehnatni muhofaza qilish kabinetida, xavfsizlik texnikasi injeneri tomonidan o‘tkaziladi.

Ish joyidagi yo‘l - yo‘riqlar. Ishga yangi kirgan, bir ishdan ikkinchi ishga o‘tkazilgan, bir mashinadan ikkinchi mashinaga, bir uchastkadan ikkinchi uchastkaga o‘tkazilgan, agar bu o‘tkazishlar vaqtincha bo‘lishidan qat’iy nazar ish joyidagi instruktajdan o‘tkazilishi shart.

Yo‘l – yo‘riqlar o‘tkazayotganda avvalo odatdagi ish sharoitida ishchi o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida ma‘lumot beriladi. Lekin sanoat korxonalarida ba’zi bir haddan tashqari holatlar ham yuz berib qolishi mumkin. Masalan avariya,

yong'in va boshqa hollarda ishchi o'zini qanday tutishi, tez harakat qilishi mahim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mana shunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida ham ma'lumot berilishi kerak.

Ishjoyidagiyo'l - yo'riqlarni master yoki brigadir o'tkazadi.

Vahti-vaqtibilano'tkaziladiganyo'l - yo'riqlar. Buyo'l - yo'riqlarni o'tkazishvaqtini fabrika, zavod kasaba uyushmasi komitetlaribilan kelishgan holda, sanoat korxonasi ning rahbari belgilaydi. Buyo'l -

yo'riqlarning mazmuni ish joyidagiyo'l - yo'riqlarning mazmuni bilan bir xil. O'tkaziladigan yo'l - yo'riqlarning, kirish yo'l - yo'riqlari singari hamma ishchilar ish staji, malakasi, razryadidan qat'iy nazar o'tkazilishi shart.

Rejadan tashqari yo'l - yo'riqlar. Bu yo'l - yo'riqlar texnologik jarayonning o'zgarishi, yangi mashina va stanoklar kiritilishi va yangi materiallardan foydalanish natijasida ish sharoitining o'zgarishi sababli ishchilarning xavfsizligini saqlash uchun bilimlari etishmasligi sezilganda o'tkazilishi mumkin.

### **Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta'minlovchi vositalar**

To'qimachilik va engil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari GOST 12.3.002-75 "Ishlab chiqarish jarayonlari". Umumiy xavfsizlik talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Inson hayoti va sog'ligiga doimiy yoki vahti-vaqti bilan xavf tug'diruvchi joy xavfli chegara yoki mintaqa deb ataladi. Bu asosan mashina va jihozlarning ochiq holdagi aylanadigan va harakatlanadigan qismlari, aylanadigan qirquvchi asboblari, zanjirli va tishli uzatmalar, harakatlanuvchi stanoklarning ishchi stollari, issiq yuzalar, zaharli kimyoviy moddalar va pardoqlashga ishlatiladigan kislota, ishqorlar va boshqa o'yuvchi moddalar bilan ishlaydigan ish joylari, elektr tokidan foydalanishdagi ish o'rinlari, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuradigan kranlar va mashinalarning harakat chegarasi doirasidagi xavfli mintaqalar shular jumlasiga kiradi.

Aylanuvchi qismlar bilan ishchilarning kiyimidan yoki sochidan ilintirib olishi mumkin bo'lgan jihoz va uskunalarning atroflari ayniqsa o'ta xavfli chegara hisoblanadi.

Shuningdek, jihoz va uskunalarda ishlaganda elektr tokidan zararlanish, issiqlik, elektomagnet, ionlashgan nurlar, shovqin, titrash, ultratovush, zaharli gazlar va bug'lar ta'siriga tushib qolish ham xavfli chegaralar yoki mintaqalar qatoriga kiradi.

Qurilma va uskunalarda ishlayotganda qirqimlarining uchib ketishi, ishlayotgan asboblarning sinib har tomonga sachrab ketishi, detall yaxshi mahkamlanmaganligi hisobida ishlov berish jarayonida otilib ketishi natijasida ishchilarni jarohat olishi ham xavfli mintaqalar qatoriga kiritiladi.

Xavfli mintaqalar doimiy, harakatlanuvchan va vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan turlarga bo'linadi.

A) Doimiy xavfli mintaqalarga qayishli, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning qirqish qismlari va harakatlanuvchi valiklari kiradi.

B) Harakatlanuvchan xavfli mintaqalarga esa prokat qilish stanlari, potok liniyalari, konveyerlar, qirqish joyi o'zgarib turadigan agregat dastgohlari va boshqalar kiradi.

V) Vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan xavfli mintaqalarga yuk ko'tarish kranlari, kran balkalar, tal va telferlar kiradi. Chunki bu qurilmalar ish joylarini doimiy o'zgartirib turadi va qaerda ish bajarayotgan bo'lsa, shu erda xavfli mintaqalar vujudga keladi.

Xavfli mintaqalardan saqlanish vositalari va aslahalari ikki gruxga bo'linadi.

1. Jamoa muhofaza aslahalari, ishchilarni ionlanuvchi nurlardan, elektromagnet, magnet va elektr maydonlaridan, mexanik, kimyoviy biologik omillardan muhofazalovchi vositalar kiradi.

2. SHaxsiy muhofaza aslahalari, maxsus terini, nafas olish organlarini, qo'lni, yuzni, ko'zni, quloqni muhofaza qiluvchi vositalar va aslahalar kiradi.

Ishlab chiqarishning hamma soha va tarmoqlarida mehnat xavfsizligini oshirish, shikastlanish hamda zararlanishlarning oldini olish uchun maxsus texnik vositalari qo'llaniladi va ularga quyidagilar kiradi.

## *2. Saqlovchi muhofaza qurilmalari.*

Asasan mashina va jihozlarda zo'riqish vujudga kelganda, ishchi hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lganda, to'xtatib qo'yishga xizmat qiladigan qurilmalardir.

Zo'riqish bilan ishlayotgan mashina qurilmalarning, elektr motori kuyib ketishidan va qirquvchi vositani sinib ketishidan hamda ishchi hayotiga va faoliyatiga xavf tug'diruvchi vaziyatdan saqlanish maqsadida muhfaea qurilmalaridan foydalaniladi.

Xuddi shunday vazifani bajaruvchi vosita sifatida bosim ostida ishlatiladigan idishlarga o'rnatilgan saqlovchi klapanlar misol sifatida ko'rsatish mumkin. Saqlovchi qurilmalar, xonadagi zaharli moddalarning miqdori ko'payganda shamollatish qurilmasini avtomatik ravishda ishga tushiradi.

### **MAXSUS MUHOFAZA VOSITALARI**

To'quv mashina va mexanizmlarini loyihalash vaqtida maxsus muhofaza vositalaridan keng foydalaniladi. Bularga mashinalarni bir necha ishlatish tugmalari yordamida boshqarish (masalan yigiruv mashinalarini ishlatganda oyoq bilan bosiladigan pedal va qo'l bilan ulaydigan tugmalar bor) tizimiga ega bo'lgan shamollatish vositalari, yoritish manbalari va yoritish qurilmalari, shovqinni so'ndirish, izotoplarni saqlash va tashish vositalari, dastgohlarni erga ulab muhofazalash va boshqa elektr urish ta'sirini yo'qotishga qaratilgan muhofazalash chora-tadbirlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Maxsus muhofaza vositalaridan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish sharoitlarida har qanday xavfli va zararli sanoat omillari bo'lgan joylarning deyarli hammasida foydalaniladi.

Sanoat korxonalarida shuningdek bepul berilishi kerak bo'lgan maxsus ish kiyimlari, oyoq kiyimlari va shahsiy muhofaza aslahalari ham belgilab qo'yiladi.

## **TIKUVCHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH MIKROIQLIMINING GIGIENIK NORMALARI.**

Ishlab chiqarish mikroiqlimi normalari mehnat xavfsizligi standartlari sistemasi "Ishzonasimikroiqlimi" (GOST 12,1005-76)ga asosan belgilangan. Ular gigienik va texnik iqtisodiy negizlarga asoslangan.

Tikuvchilik korxonalarini xonalarining xarakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan normalari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi: yengil jismoniy ishlar (1 kategoriya)-o'tirib, tik turib yoki yurish bilan bog'liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo'riqish yoki yuklarni ko'tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.S) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik korxonasi, aniq asbobsozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

### **TIKUVCHILIK KORXONALARNI YORITISHGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR**

Tikuvchilik korxonalarida umumli ish sharoitini tashkil qilish va ishchilarning ish sharoitlarini yaxshilash maqsadida ko'z nitoliqishdan saqlovchi yoritish vositalarini tashkil qilish sanoat korxonalarini oldiga qo'yilgan asosiy sanitariya-gigienik talabdir. Bunday sharoit tashkil qilish uchun sanoat korxonalarini yoritish sistemalariga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Ish joylarini yoritish sanitariya-gigienik normalari asosida ish kategoriyalariga moslashgan bo'lishi kerak. Ish joylarini maksimal yoritish albatta ish sharoitini yaxshilashga olib keladi. Bunda ish olib borilayotgan ob'ektning ko'rishni yaxshilash natijasida ish unumi ortadi. Ba'zibiraniqishlarni bajaranda yoritilishni 50 lk dan 1000 lkgacha oshirish bilan ish unumini 25%-ga oshganligi ma'lum. Ko'z bilan ko'rib olinish uchun talab qo'yilgan ko'z nitoliqishlarni bajaranda ham yoritilishni 50 lk dan 300 lk ga oshirish unumini 5-7%-ga oshirgan.

Ammoyoritilishma'lummiqdorgaetgandankeyinundankeyingiyoritilishningoshirilis hiyaxshinatijabermaydi.

Shuninguchunhamiqtisodiysamaraberadiganyoritilishningoqilonavariantinitanlashz arur.

2.Isholibborilayotganyuzagavako'zgako'rinadiganatrofmuhitgayorug'likbirteki stushadiganbo'lishikerak.

Chunkiagarisholibborilayotganyuzadavaatrofmuhitdayaltiroquchastkalar mavjudbo'lsa, undako'zningulargatushishivaqaytibishzonasiga qaragandako'zningjimirlashishi vama'lumvaqtko'nikishikerakbo'ladi. Buesako'zning tez charchashigaolibkeladi.

## **TIKUVCHILIK KORXONALARIDA TITRASHNING ODAMGA TA'SIRI, TITRASHNING NORMALARI.**

Titrash umumiy va qisman bo'lishi mumkin. Umumiy titrashda inson organizmi butunlay titrash ta'sirida bo'ladi, qisman esa inson organizmining ba'zi bir qismlarigina titrash ta'siriga tushadi. Umumiy titrashga transport vositalarini boshqaruvchilar, shtamp sistemalarini, yuk ko'tarish kranlari va boshqa vositalarni boshqaruvchilar umumiy titrash ta'siri ostida bo'ladi.

Qisman titrash ta'siriga qo'lda ishlatiladigan elektr va pnevmatik qurilmalar bilan ishlayotganlar (qo'lda silliqlash ishlarini bajaradigan vositalar, elektr drellari, betonni shibbalovchi vibratorlar va h.k.) tushadi. Ko'pincha ishchilar har ikkala titrash ta'sirida bo'ladi.

Umumiy titrashning 0,7 Gs dan kichik bo'lgan chastotalari umuman titrash kasalligiga olib kelmaydi, ammo bunday chastotadagi titrashlar dengiz to'lqinlari singari bo'lganligi sababli, dengiz kasalligiga olib kelishi mumkin. Bunda odam ichki organlarining muvozanati buzilishi kuzatiladi.

Inson organizmining deyarli hamma qismlarida har xil chastotadagi titrashlar mavjud. Masalan, odam boshi, bo'yni, yurak qismlari titrashlar sistemasi sifatida qaralishi mumkinki; bu o'ziga yarasha og'irlikka ega bo'lib prujinasimon vositalar yordamida titrashlar vujudga keltiradi va bu titrashlarni so'ndirishga harakat qiluvchi qarshiliklar gruppalari ham mavjud. Agar bu titrovchi qismlarga tashqaridan xuddi shu chastotadagi titrashlar ta'sir ko'rsatsa, organizmda rezonans

vujudga kelishi mumkinki, bu titrashni bir necha o'n marta ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida organizm qismlarida siljishni vujudga keltiradi.

Masalan tik turib ishlaganda bosh, elka, bo'yin va umurtqa qismlarining titrashi 4-6 Gs ni tashkil qiladi. O'tirib ishlaganda boshning elkaga nisbatan titrashi 25-30 Gs ni, ko'pchilik ichki organlarning titrashi 6-9 Gs atrofida bo'ladi. Xuddi shunday chastotadagi titrash ta'siriga tushish katta asoratlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi, ba'zan mexanik jarohatlarga olib kelishi mumkin.

### **SHOVQINNING ZARARLI TA'SIRI, NORMALARI.**

SHovqin darajasiga va xarakteriga qarab, shovqinlar odam organizmiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'sir darajasining o'zgarishiga shovqinning ta'sir davri va odamning shaxsiy xususiyatlari ham ma'lum rol o'ynaydi. SHuning uchun ham shovqin hamma uchun bir xil ta'sir ko'rsatadi deb bo'lmaydi.

Uncha katta bo'lmagan shovqinlar (50-60dB) ham inson asab sistemasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa bunday shovqinlarning ta'siri aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda ko'proq seziladi. Bundan tashqari bunday shovqinlarning ta'siri har xil odamda har xil bo'ladi. Ba'zilar bunday shovqinlarga mutlaqo ahamiyat bermaydilar, ba'zilar esa keskin asabiylashadi.

Bunday shovqinning ta'sir ko'rsatishi odamning yoshiga, sog'lig'iga va bajaradigan ishiga, kayfiyatiga va boshqa omillarga bog'liq.

Shovqinning zararli ta'siri, shuningdek doimiy shovqinlardan farqliligiga, masalan musika tovushlari, odam so'zlashgandagi tovushlarga odam mutlaqo befarq qaraydi, xuddi shu darajadagi begona shovqinlar uni asabiylashishga olib keladi.

Ma'lumki, ba'zi bir jiddiy kasalliklarga chalingan bemorlar, masalan qon bosimi, ichak va oshqozon yarasi va ba'zi teri kasalliklari, asab kasalliklari bilan og'rikan bemorlarning mehnat qilish va dam olish rejimlari umuman kasallik tufayli buzilgan bo'ladi. Bunday kasallar uchun ortiqcha shovqinning bo'lishi ularning nihoyat darajada toliqishiga olib keladi, agar bu shovqinlar tunlarda bo'lsa, og'ir asoratli kasallarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Agar shovqin darajasi bunday hollarda 70 dBga teng bo'lsa, u bunday toliqqan bemorlar

organizmda fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. YOsh va sog'lom odamlar uchun bunday shovqinlar butunlay zararsiz deyish mumkin.

### **Elektr tokidan himoyalanih**

Har qanday elektr qurilmasini, agar uning metall korpuslarida elektr kuchlanishi hosil bo'lishi xavfi bo'lsa, qaysi joyda va qanday binoda ishlatilishidan qat'iy iazar, uning korpusini erga ulab qo'yiladi va bu elektr uskunalari erga ulab muxofaza qilish deb ataladi.

Erga ulab muhofaza qilishning asosiy mohiyati ishlatilayotgan elektr asboblari metall korpuslarida elektr kuchlanishi paydo bo'lsa uni erga o'tkazib yuborishdai iborat.

Elektr qurilmalarni erga ulab muhofaza qilishning asosiy xususiyati, qurilma korpusiga o'tib ketgan kuchlanishni xavfsiz kuchlanish darajasiga tushirish, shuningdek, erga ulangan joy atrofida potentsiallar ayirmasi hosil bo'lmasligini ta'minlashdan iborat. Erga ulagich orqali erga oqib o'tib ketayotgan elektr toki erga ulagich qarshiligiga duch keladi. By qarshilik asosan uch qismdan tashkil topadi: erga ulagichning o'zining qarshiligi, erga ulagich bilan tuproq o'rtasidagi qarshilik va tuproqning qarshiligi. Erga ulagichning o'z qarshiligi va erga ulagich bilan tuproq o'rtasida paydo bo'ladigan qarshilik tuproqning tok o'tkazishiga kursatadigan qarshilikka nisbatan juda kam miqdorni tashkil qiladi. SHunint uchun biz erga ulagich qarshiligini hisoblaganda tuproqdagi qarshilikni hisoblash bilan cheklanamiz.

$$I = U/R$$

Har qanday erga ulagichning umumiy qarshiligi Om konuni asosida hisoblab topiladi;  $U = I R$  bunda  $U$ -kuchlanish,  $I$  -erga ulagach orqali oqib o'tayotgan tok ( $A$ ),  $R$ -epra ulagich qarshiligi ( $Om$ ).

## **Elektr tokidan yerga ulab muhofazalanish.**

Texnologik liniyalarni loyihalashda va texnologik qurilmalarni sexlarda me'yoriy joylashtirishda bitiruvchi talaba, elektr mashina va jihozlarning tok o'tkazmaydigan metall qismlarini erga ulash, "nol"ga ulash va tokdan ajratish qurilmasi orqali ishchi-xodimlarning elektr xavfsizligi ta'minlanishini bilishi zarur.

### **Himoyalovchi yerga ulash tizimi chizmasi**

*Birinchi yordam ko'rsatish* - uning holatiga qarab belgilanadi, agar tok ta'sirida hushini yo'qotgan, ammo nafas olishi va yurak tizimi ishlayotgan bo'lsa, uni quruq va qulay joyga yotqizib, kamari va yoqasini bo'shatish va sof havo kelishini ta'minlash, nashatir spirti hidlatish, yuziga suv purkash, tanasini va qo'llarini ishqalash yaxshi natija beradi.

Agar jarohatlangan kishining nafas olishi qiyinlashsa, qaltirash holati bo'lsa, ammo yurak urish ritmi nisbatan yaxshi bo'lsa, unda bu kishiga sun'iy nafas oldirish zarur.

Klinik o'lim holati yuz bergan taqdirda sun'iy nafas oldirish bilan bir qatorda yurakni ustki tomondan massaj qilish kerak.

Sun'iy nafas oldirish "og'izdan og'izga" deb atalib, yordam ko'rsatuvchi o'pkasini havoga to'ldirib, jarohatlangan kishi og'zi orqali uning o'pkasiga bu havoni haydaydi.

Bunda yordam ko'rsatayotgan kishi og'zi bilan, jarohatlangan kishining og'zini butunlay berkitishi va yuzi yoki panjalari yordamida uning burnini berkitish kerak.

Bir minutda taxminan 10-12 marta puflashni, doka dastro'mol va trubka orqali ham bajarish mumkin, sun'iy nafas oldirishni bemor o'ziga kelguncha davom ettiriladi.

### **Korxonalarining yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari**

Ishlab chiqarish jarayonlari yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirishda, GOST 12.1.004.-91 "YOng'in xavfsizligi umumiy". Umumiy talablari va GOST 12.1.010-90 "Portlash xavfi". Umuiy qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi. Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan uskuna va jihozlar,

yongʻin va portlab ketish jihatidan xavfsizdir. Ammo bu uskuna va jihozlar ishlab chiqarishning yongʻin va portlash xavfi boʻyicha turiga mos ravishda toʻgʻri tanlangandagina xavfsizlikni taʼminlay oladi.

Korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, tayyorlaydigan mahsuloti va joylashgan binosining loyihasini hisobga olib yongʻin chiqishga, potlashga, yongʻin chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek, yongʻin va portlashning etkazgan asorati va qurilish meyoriy qoidalari (SNIIP 2-90-81) asoslanib, xavflilik darajasi belgilanadi.

- A darajali yongʻin va portlashga xavfli korxonalar. Bular suyuqlik taʼsirida havodagi kislorod bilan birikish natijasida yonishi va potlashi mumkin boʻlgan moddalar, chaqnash harorati  $28^0$  S.gacha boʻlgan suyuqlik va gazlarni portlash imkoniyatini tugʻdirishi mumkin boʻlgan korxonalar boʻlib, bosim 5 KP. gacha boʻlgishi kerak.

Bu darajaga oltingugurt, uglerod, efir, atseton ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

- B darajali portlash va yongʻinga xavfli korxonalar. Ularga chaqnash harorati  $28^0$ S dan yuqori boʻlgan hamda ishlab chiqarish jarayonida chaqnash haroratigacha qizdirilgan suyuqliklar va changlar binoda bosim 5 KP. dan koʻproq miqdorda toʻplanib, portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin boʻlgan korxonalar kiradi.

- V darajali korxonalar yongʻinga xavfli boʻlgan, bugʻ, harorati boʻlgan suyuqliklar, shuningdek, bir-biri bilan, havodagi kislorod suv bilan birikkan holda yonuvchi moddalar va qattiq yonuvchi jismlar bilan ish olib boradigan korxonalar kiradi.

- G darajali korxonalar, yonmaydigan jism va materiallarga, qizdirib, choʻgʻlantirib va eritib ishlov berish jarayonida issiqlik, uchqun va alangalar chiqishi mumkin boʻlgan, qattiq, suyuq, va gazzimon moddalar yoqilgʻi sifatida ishlatiladigan korxonalar kiradi.

- D darajali korxonalar, yonmaydigan jismlar va materiallarga sovuq ishlov beradigan korxonalar kiradi. Mashinasozlik sanoat korxonalarini, qurilish sanoat korxonalarini kiradi.

Yong'in va portlash darajasi korxonani loyihalash va ishga tushirish vaqtida har bir vazirlik tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha aniqlanadi.

### **Avtomatik o't o'chirish vositalari**

Avtomatik o't o'chirish tizimiga sprinkler qurilmalari kiradi va yong'in xavfi yuqori bo'lgan sanoat korxonalariga o'rnatiladi. Mashinasozlik korxonalariga yong'inga uncha xavfi bo'lmaganligi sababli, ularga sprinkler qurilmalari o'rnatilmaydi.


Sprinkler qurilmalari o'rnatiladigan binolarga bosim ostida suv o'tkazuvchi quvurlar o'tkaziladi va bu quvurlarga sprinkler boshchalari o'rnatiladi. Yong'in sodir bo'lgan taqdirda issiqlik ta'sirida sprinkler ishga tushadi, ya'ni suv chiqish teshigi ochilib, suv sepa boshlaydi. Uning suv chiqarish teshigidan ma'lum masofada o'rnatilgan doira shaklidagi to'siq suvning keng ko'lamda sachrashini ta'minlaydi, har bir sprinkler boshchasi 6-9 m<sup>2</sup> maydonga suv sachratib, o't o'chirishni ta'minlaydi.

Bunday qurilmalar o'rnatilgan korxonalarda sodir bo'lgan yong'inlarning 90% shu qurilmalar o't o'chirish komandalari kelgunga qadar o'chirishga ulgurgani aniqlangan.

Sprinkler qurilmasining asosiy ishchi qismi sprinkler boshchasi hisoblanadi.

Unig bir tomoni rezkali qilib tayyorlangan va shu tomonini suv o'tkazuvchi quvurga burab o'rnatib qo'yiladi. Unig ikkinchi tomoniga bronzadan qilingan, halqa tutqichi oxirida esa deflektor o'rnatilgan. U sprinkler boshchasi teshigidan chiqadigan suvga to'siq vazifasini bajaradi va suv deflektorga urilib, har tomonga yoyilib sochiladi. Bronza halqa sprinkler boshchasiga yupqa metalldan qilingan diafragmani qisib turadi. Diafragma o'rtasida teshik bo'lib, u shisha klapan bilan berkitilgan va bu klapani yupqa plastinka ushlab turadi. Plastinka asosi halqa bilan engil eruvchan modda yordamida yopishtirib qo'yilgan. Engil eruvchan moddaning eruvchiligi sharoitga moslab tanlanishi mumkin. Agar bino ichidagi harorati ko'tarilsa, unda engil eruvchan modda erib ketadi va bu diafragma teshigini berkitib turgan shisha klapaning tushib ketishiga sababchi bo'ladi. Shundan keyin sprinkler boshchasi ma'lum maydon bo'ylab suv sepa boshlaydi.

Sprinkler tizimiga keltirilgan suv ma'lum qurilmalar orqali o'tganligi sababli, bu qurilmalar yong'in chiqqanini bildiruvchi sirena yordamida signal beradi.



Avtomatik o't o'chirish vositalari:

a) O'rnatish sxemasi; b) Drencher qurilma; s) Sprinkler qurilma;

## ELEKTR TOKI TA'SIRIGA TUSHGAN KISHIGA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Elektr ta'siriga tushgan kishi birinchi yordam ko'rsatiladigan yordamni ikki qisimga bo'lib qaraladi:

- I. Tok ta'siridan qutqazish va
- 2) birinchi yordam ko'rsatish.

Tok ta'siridan qutqazish o'z navbatida bir necha xil bo'lishi mumkin. Hammasi oson va qulay usul bo'lib, elektr qurilmasining o'sha qismiga kelayotgan tokning o'chirishidir.

Agar buning iloj bo'lmasa (masalan o'chirish qurilmasi uzoq dabo'lsa), unda tok kuchlanishi 1000 V dan ko'proq bo'lgan elektr qurilmalarida elektr simlarini sopi yog' ochilib olingan boltalar bilan kesish yoki zararlangan kishining kiyimini quruq bo'lsa, uning kiyimidan tortib tok ta'siridan qutqazib qolish mumkin. Agar elektr tokining kuchlanishi 1000 V dan ortiq bo'lsa, unda dielektrik qo'lgop va elektr izolatsiya mustahkam bo'lgan elektr asboblardan foydalanish kerak.

Elektr ta'siriga tushgan kishi birinchi yordam ko'rsatish, uning holatiga qarab belgilanadi. Agar ta'sirlangan kishi hushini yo'qotmagan bo'lsa, unda uning tinchligini ta'minlab, vrach kelishini kutish yoki iunitezdada davlash muassasasiga olib borish zarur.

Agar

tok

ta'siridaxushiniyo'qotganammonafasolishi vayuraksistemasi ishlayotgan bo'lsa, unda uniquruq va qulay joyga yotqizish, kamarivayoqasinibo'shatish va so'f havokelish nita'minlash zarur. Nashatir spirt hidlatish, yuziga suv purkash, tanasini va qo'llarini ishqalash yaxshinatijaberadi.

Agar jarohatlangan kishining nafas olishi qiyinlashsa, qaltirash holati bo'lsa, ammo yurak urish ritmi nisbatan yaxshibo'lsa, unda bukishiga sun'iy nafas oldirish ishlarini bajarish

### **Baxtsiz hodisalarda birinchi yordam ko'rsatish**

Ma'lumki, jarohatlanish oqibati o'z vaqtida ko'rsatilgan yordamga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. SHuning uchun har bir ishlovchi bevosita baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda vrachga birinchi yordam ko'rsatishni bilishi kerak.

## XULOSA

Yurtboshimiz o'z chiqishlarida albatta ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratadilar, yoshlar xaqida fikr bildirganda mening farzandlarim, tayanchim va suyanchim deb murojaat qiladilar. Bunday beqiyos g'amxo'rlik ertamiz egalarini zamon talablari darajasida bilim olishi intellektual jixatdan etuk kadrlar bo'lib etishishlari uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlarda o'z ifodasini topmoqda. Bunda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda qator manzili davlat dasturlari muxim ahamiyat kasb etayotir. Yoshlarni har tamonlama qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularni ish bilan ta'minlash tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, biz yoshlar ham oliy ma'lumotli mutaxassis sifatida tayyorgarlik ko'rib borib, o'z sohamiz bo'yicha bilimlarni egallashga va ko'nikmalarni rivojlantirishga harakat qilib, har bir fandan sinov ishlarini ijobiy topshirishga harakat qilmoqdamiz.

Men bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida «Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlari texnologiyasi», «Materialshunoslik», «Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlari jihozlari», «Tikuv, trikotaj va zardo'zlik buyumlarini konstruksiyalash» kabi ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarimga tayanib bajardim.

Berilgan mavzu bo'yicha neft-gaz sanoati ishchilari uchun maxsus kiyimi yangi modeliga texnologik ishlov berish uchun model chizib, ularga tasnif berdim. Tanlangan model asosida matoning xususiyatini inobatga olib, tikilayotgan buyumga texnologik ishlov berishda zamonaviy, vaqtni tejaydigan zamonaviy jihozlarni tanladim. "Zinger" firmasining universal tikuv mashinasining igna mexanizmining konstruktiv tahlilini bajardim.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda bizda bugungi kunda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarida ishlatib kelinayotgan bazaviy va zamonaviy tikuvchilik mashinalari turlari, ulardagi uzal va mexanizmlari haqida to'liq ma'lumotlar keltirib ularni tahlil qildik. Zamonaviy (Zinger) yo'rmab-tikish mashinasi asosiy mexanizmlarining ishlash prinsipini to'liq o'rganib chiqib, kiyim detallarini tikishda bahyaqator hosil bo'lishida bevosita ishtirok etadigan chalishtirgich

mexanizmning strukturaviy tahlili hamda Chebishev formulasi asosida chalishtirgich mexanizmining qo'zg'aluvchanlik darajasi doim birga teng ( $W=1$ ) bo'lishini aniqlanadik.

Mehnat faoliyati xavfsizligi qismini bajarishda ishlab chiqarishda bugungi kunda inson hayoti uchun zararli ta'sirlarni o'rgandim va ulardan himoyalanih yo'llarini yoritib berdim.

## ADABIYOTLAR:

1. I. A.Karimov. Jaxon molyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.
2. M.Sh.Jabborova . «Tikuvchilik texnologiyasi» darslik. Toshkent «Uzbekiston» 1994 y.
3. X.X.Komilova. «Kiyim loyixalash asoslari»-2004yil
4. M.Kudratov «Sanoat ekologiyasi» TTESI 1994 y.
5. Sh.Xasanboyeva. «Kiyim modelini ishlab chiqish va konstuksiyasini qurish». Toshkent, «Uqituvchi» ,1990y.
6. A.I.Martinova «Konstruktivnoye modelirovaniye odejdq» Moskva 2002g.
7. V.V.Malsova «Tikuvchilik materialshunosligi» Moskva «Legprom» 1986y.
8. X.X.Samarxodjeyev «Tikuvchilik korxonalarining jixozlari» Toshkent 2001y.
9. M.V.Karimova «Tikuvchilik sanoati, ekonomikasi, ishlab chikarishni tashkil etish, rejalashtirish» Toshkent «O'qituvchi» 1989y.
- 12 Qaxramon Olimov «Yengil sanoat mashinalari apparatlari» Toshkent «A.Kodiriy nomidagi xalq meros», 2003y.
- 10.A.Я. Измestьява и др. «Технологические расчеты основных цехов швейных фабрик», М., «Легкая индустрия», 1978.
11. В.П.Нестеров. Автоматизированная система проектирования технологических процессов. Л.И. 1980.
12. Олимов К.Т, Узаква Л.П. Швейные машины. «Шарк», Ташкент, 2006.
13. Рейбарх Л.Б., Лейбман С.Я., Рейбарх Л.П. Оборудование швейного производства. Легпромбытиздат, М., 1988, с.288.
14. Internet saytlari:  
[www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)  
[www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)  
[www.fatex.ru](http://www.fatex.ru)

[www.vzerkale.ru](http://www.vzerkale.ru)

[www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)

[www.sarafan.ru](http://www.sarafan.ru)

[www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)

[www.fatex.ru](http://www.fatex.ru)

[www.balzam.pp.ru](http://www.balzam.pp.ru)

[www.vzerkale.ru](http://www.vzerkale.ru)

[www.ftv.fr](http://www.ftv.fr)